



MUSEUM WORK IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Otabek Solijonov

Lecturer

Tashkent branch of the University of Business and Science

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Museum work, cultural heritage, history, research, interactive museum, tourism, education, modern technologies.

Received: 18.02.25

Accepted: 20.02.25

Published: 22.02.25

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan to develop museum work after its independence and their results. The work carried out during the years of independence on the establishment of new museums, the preservation and promotion of historical and cultural heritage, as well as the process of transforming museums into educational and research centers are highlighted.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MUZEY ISHI

Otabek Solijonov

o‘qituvchi

Univesity of Business and Science universitetining Toshkent filiali

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Muzey ishi, madaniy meros, tarix, ilmiy-tadqiqot, interfaol muzey, turizm, ta’lim, zamonaviy texnologiyalar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng muzey ishini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida yangi muzeylarning tashkil etilishi, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib qilish borasida olib borilgan ishlar, shuningdek, muzeylarning ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazlariga aylanishi jarayoni yoritiladi.

МУЗЕЙНОЕ ДЕЛО В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Отабек Солиджонов*преподаватель**Ташкентский филиал University of Business and Science**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Музейное дело, культурное наследие, история, научные исследования, интерактивный музей, туризм, образование, современные технологии.

Аннотация: В статье анализируются реформы, проведенные в целях развития музейного дела в Узбекистане после обретения независимости, и их результаты. В статье будет рассмотрено создание новых музеев за годы независимости, проводимая работа по сохранению и популяризации историко-культурного наследия, а также процесс превращения музеев в образовательные и исследовательские центры.

Muzeylar faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmasdan, ular bizni o'tmish sayohatiga chorlovchi yo'lchi yulduz hamdir. O'zbekiston muzeylari 130 yillik tarixga ega. Mamlakat miqyosida muntazam faoliyat yuritayotgan 1200 dan ziyod turli yo'nalish va soha muzeylari tashrif buyuruvchilarni mamnun qilib kelmoqda. Muzeylar ma'nan boyib, muntazam kengayib boradi.

Muzey – yunoncha “musion” – “muzalarga bag'ishlangan joy” degan ma'noni bildiradi. Muzey tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va tashviq qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-marifiy maskan bo'lib, o'zining ekspozitsiya va ko'rgazmalari vositasida tashviqot va tarbiyaviy ishlarni bajaradi[1].

Muzeylar, ayrimlar tasavvur etganidek, shunchaki “yoyma bozor”, kolleksionerlar tomonidan ota-bobolarimiz merosini yig'ib borish uchun qurilgan uy ham emas, balki o'zida ma'lum bir davr tarixi va ma'lum bir eksponat haqida aniq bir ma'lumot berishga mo'ljallangan tabarruk dargohdir. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq ommasiga namoyon qilishdan iborat. Muzeylar aholining keng tabaqalari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradi. Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga yetkazishning eng yetakchi vositalaridan hisoblanadi.

Muzeyning asosiy belgisi – ilmiy asosda tashkil etilgan va hisobga olish lozim bo‘lgan muzey predmetlarini to‘plash, saqlash, konservatsiyalash, muzeysunoslik va sohaviy fanlarning ilmiy metodlari bazasida tadqiq qilish va ilmiy, ta’limiy – tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishlardan iborat. Umumlashgan formada muzeyning zamonaviy tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin. Ma’lum tarixiy sharoitda muzeylar faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida qatlami sifatida – muzey ishining mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Uning tarkibiga muzeylarning amaliy faoliyati va yodgorliklarni asrash, muzeylar tizimi, muzey siyosati va qonunchiligi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi, sohaviy ilmiy, ilmiy-metodik va o‘quv markazlari, maxsus davrlashtirish va nihoyat maxsus ilmiy fan muzeysunoslik fani kiradi. Muzeysunoslik ijtimoiy fan bo‘lib, ijtimoiy ma’lumotlar, bilimlari saqlash jarayonlarini, hamda bilimlar va hissiyotlarni muzey predmetlari vositasida yetkazib berish masalalarini o‘rganadi.

Muzey – madaniy, tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarni yig‘uvchi va ular haqidagi ma’lumotlarni muzey ashyolari vositasida, targ‘ib qiluvchi ijtimoiy institutdir[2].

Muzeysunoslikda muzeylarning kelib chiqishi, tarixi, ijtimoiy tizimda ularning o‘rni, guruhlashtirish, muzeylarni turlashtirish, kabi masalalar o‘rganiladi;

- muzeylarning ichki tashkil etilishini, muzeylarning ijtimoiy funksiyasini, maxsus fanlar rivojlanishini o‘rganadi;

- muzeylarning o‘ziga xos harakatlarini o‘rganadi;

- muzey ishi rivojlanishining qonuniyatlarini, uni tashkil etish va boshqarish masalalarini o‘rganadi;

- muzey tarmoqlari, tashkil etilish jarayoni va rivojlanishi, tarmoqlarni loyihalash masalalarini o‘rganadi;

- muzeysunoslik fanini maxsus fan sifatidagi xolatini, uning o‘ziga xos xarakterini va fanlar tizimidagi o‘rnini o‘rganadi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha tarmoqlarida bo‘lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o‘tmish merosimizni o‘rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ‘ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, hayotidagi o‘zgarishlar qatorida O‘zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Ana shu maqsadlar davlatimizning asosiy harakatlarida o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoni[3], 2008-yil 20-sentabrda qabul qilingan “Muzeylar to‘g‘risida” gi Qonun[4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-

fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni[5], O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Ma‘daniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3022-sonli Qarori[6] va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda “2017 – 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 975-sonli qarori[7] muzey va muzey hodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmonida asosan O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, xalqning ma‘naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini mustaqilligimizning odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g‘urur va iftixor, istiqloq va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur sharoitlar, chora-tadbirlar ko‘rsatib o‘tilgan[8].

Farmon asosida, Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida muzeylarni qo‘llab-quvvatlovchi “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tashkil etildi[9]. “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi faoliyatining birinchi kunlaridanoq o‘zining asosiy yo‘nalishlarini belgilab, amalda joriy etish lozim bo‘lgan vazifalarini aniqladi:

1. Respublikamiz muzeylari o‘z yo‘nalishlariga qarab xalqimiz boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o‘rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqloq ruhida ekspozitsiyalar yaratishi zarurligi.
2. Asrlar davomida yaratilib, chetga chiqib ketgan merosimizni Vatanimizga qaytarish.
3. Muzeylarni ma‘naviyat o‘chog‘iga aylantirib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga davlatchiligimiz tarixiga, qadimgi asos solingan ajdodlarimiz merosiga nisbatan g‘urur va faxr tuyg‘usini singdirish.
4. Muzeylarimizdagi boy eksponatlarni, yutuqlarimizni jahon jamoatchiligiga tanitish maqsadida targ‘ibot ishlarini kuchaytirib, viloyatlararo ko‘rgazmalar tashkil etishga ko‘maklashish.
5. Xalqaro turizmni rivojlantirib O‘zbekiston muzeylariga chet ellik sayyohlarni jalb etib, ularga yuksak madaniy xizmat ko‘rsatish.

6. Muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro'yxatini tuzish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish hamda noyob eksponatlar aks etgan otkritkalar, bukletlar, yo'l ko'rsatgichlar, kataloglar chop etish.

7. Kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy qarash maqsadida oliy o'quv yurtlariga muzeyshunos olimlarni jalb etib, o'qitish usullarini takomillashtirish. O'quv mashg'ulotlarini amaliy mashg'ulotlar bilan birga olib borish, respublikada yetakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish[10].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-mart "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab quvvatlash masalalari to'g'risida" gi 98-sonli qarori "O'zbekmuzey" jamg'armasiga, O'zbekiston muzeylar jamoatchilik kengashining xalqaro muzeylar kengashi – IKOMga a'zo bo'lganligini hisobga olib, O'zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko'rsatish vazifasi topshirildi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta'mirlash, zarur texnik vositalar va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda mablag' bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan[11].

Mazkur qarordan ilhomlangan "O'zbekmuzey" xodimlari qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Mavjud barcha o'zbek muzeylari fondidagi eksponatlarni yagona ro'yxatini tuzish, eksponatlarni doimiy himoya qilish sharoitlarini yaxshilash, saqlanayotgan eksponatlarning qat'iy nazoratini ta'minlash, ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlardagi muzeylarda saqlanayotgan tariximizga va ma'naviy boyligimizga oid osori-atiqalarni, shuningdek, qadimiy qo'lyozmalarni ro'yxatga olish, ularni xalqimizga tanishtirish, shuningdek, muzeylardagi nodir eksponatlarni dunyoga olib chiqish, jahon xalqlariga tanishtirish sohasida tegishli tashkilotlar bilan hujjatlar ishlab chiqish, shartnomalar tuzish ishlarini olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy va ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish to'g'risida" gi hamda "Ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarorlariga javoban qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Shunga ko'ra, mamlakatdagi barcha muzeylarda har oyning bir kuni "Ochiq eshiklar kuni" deb e'lon qilindi. Shuningdek, tariximizning yorqin iz qoldirgan allomalarga bag'ishlab, muzeylarda "Barhayot siymolar" mavzusida adabiy kechalar, "Istiqlol, ma'naviyat va muzey" mavzusida tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Manguberdi, Ogahiy, Boborahim Mashrab va boshqa allomalarga bag'ishlab muzeylarda o'tkazilayotgan tadbirlar yoshlarni ajdodlar me'rosiga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy, madaniy, tarixiy merosni o'rganish orqali Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,

Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Amir Temur, Muhammad Rahimxon – Feruz, Najmiddin Kubro kabi allomalar qomusiy bilimga ega, yuksak insoniy fazilatli siymolar bo‘lganligini anglaymiz[12].

2008-yilda Vazirlar Mahkamasining “Muzeylar to‘g‘risida” gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama etildi hamda u 2008-yil avgustda ma‘qullandi, bu huquqiy hujjat 13-sentyabrdan kuchga kirdi va “Muzeylar to‘g‘risida” gi Qonun muzeylar faoliyatida tubdan o‘zgarishlar qilishga imkoniyatlar yaratdi. Qonunni amaldagi ijrosi va uni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31-oktabrdagi 237-hamda 2010-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Muzeylar to‘g‘risidagi Qonunni ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida” gi 68-sonli Qarorlari qabul qilindi[14].

2011-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 20 yilligini munosib kutib olish to‘g‘risidagi PQ-1516-sonli Prezident Qarorini ijrosi bo‘yicha barcha muzeylarda O‘zbekiston Respublikasi 20 yilda bosib o‘tgan yo‘li va islohotlar, erishilgan yutuqlarni aks ettiruvchi yangi “Mustaqillik ekspozitsiyalari” yaratildi.

Xalqaro miqyosda 1997-yil 18-may kunini “Xalqaro muzeylar kuni” deb e‘lon qilindi va shundan buyon bu sana muzey xodimlari o‘rtasida “Xalqaro muzeylar kuni” ya’ni kasb bayrami sifatida nishonlab kelinmoqda[14]. Viloyat hokimining 2012-yilgi tadbir rejasi asosida tuman “Xalq muzeylari” ning moddiy – texnika bazasini mustahkamlash va ularning ish faoliyatlarini takomillashtirish borasida bir qator tadbirlarni viloyat hokimligi Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi o‘z rejasiga kiritdi[15].

- tuman “Xalq muzeylari” ning binosini zamon talabi asosida kapital ta’mirdan chiqarish;
- muzeylarni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Buning uchun zamonaviy orgtexnika kompyuterlar, stol-stullar, stelyajlar va boshqalar bilan ta’minlash;
- “Xalq muzeylari” ekspozitsiyalarini istiqlool ruhida qayta jihozlash;
- tuman “Xalq muzeylari” qismida ham qo‘shimcha ishchi o‘rinlari yaratish va shu orqali muzeylar o‘z o‘rnini iqtisodiy rivojlantirishga manba yaratish;
- tuman “Xalq muzeylari” xazina-fondini nodir noyob eksponatlar bilan boyitish;
- tuman “Xalq muzeylari” da o‘tadigan tadbirlarni mazmunan yuqori saviyaga ko‘tarish va o‘quvchi yoshlarni ko‘plab muntazam kirishlarini yo‘lga qo‘yish[16].

Muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi ma’naviyat maskanlari bo‘lib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g‘urur va iftixorni yuksaltirishda ulug‘ qadamjolar bo‘lib qolmoqda[17].

Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko'rsatib turgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlool ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston tarixi muzeyining qaytadan ochilishi, muzey ekspozitsiya zallarining yangi loyiha va rejalar asosida jihozlanishi fikrimizning yorqin dalilidir. Mustaqillik tufayli respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor yanada oshdi[18]. Bugungi kunda Respublikamizning turli shaharlarida 1200 dan ortiq muzeylar mavjud. Shu bilan birgalikda yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarning uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, keyingi 10 yil ichida Davlat tasarrufidagi muzeylar soni ancha ko'paydi. Xususan, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil holatiga O'zbekistondagi muzeylar soni 105 tani tashkil etgan[19].

Shulardan tarix muzeylari 75 ta, o'lkashunoslik muzeylari 23 ta, badiiy san'at muzeylari 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat[20]. Bundan tashqari 7 mingdan ko'proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me'moriy obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi[21], 1800 dan ko'proq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Ayni paytda bularda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlar mavjud[22].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab muzeylar tashkil etildi. Masalan: Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-aprel qaroriga muvofiq O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi eng yirik ilmiy ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 250 mingga yaqin eksponat mavjud. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, tangashunoslik va etnografiyaga oid ko'plab qimmatli jamlamalar bor. 1992-yil may oyida Namanganda ulug' o'zbek shoiri "Boborahim Mashrab" muzeyi[23], 1992-yil sentyabrda Xorazm viloyatining Xonqa tumanida milliy mumtoz musiqalarning mashhur ijrochisi, Xorazm hofizlar maktabining asoschisi Xojixon Boltaboev nomidagi o'ziga xos noyob "Maqomchilar" muzeyi va Urganch shahrida qadimgi "Xorazm Amaliy san'ati va tarixi" muzeylari tashkil etildi. "Xorazm Amaliy san'ati va tarixi" muzeyi ekspozitsiyalarini uch mingga yaqin turli eksponatlar tarixiy hujjatlar, qadimgi xorazmliklar foydalangan uy anjomlari, tikuvchilik va gilam mahsulotlari, idish-tovoqlar, mehnat qurollari tashkil etadi[24].

1992-yil noyabr oyida Buxoroda O'zbekistonda birinchi marta temirchilik muzeyi ochildi. 1992-yil dekabrda Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining Uy – muzeyi dastlabki mehmonlarni qabul qildi. 1993-yil 1-sentyabrda Toshkent Davlat texnika universiteti qoshida O'zbekistonda birinchi bo'lib Politehnika muzeyi ochildi. 1993-yil 3-sentyabrda Toshkentda o'zbek ayollari ichidan chiqqan birinchi huquqshunos

olima akademik Xadicha Sulaymonova muzeyi ochildi[25]. 1993-yil 10- sentyabrda Toshkentda o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboeva muzeyi, 21 -sentyabrda esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat qahramoni, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi Jaboy Balimanovning hayoti va mehnat faoliyati haqida ma'lumot beruvchi muzey faoliyat boshladi. Shu yil noyabr oyida Toshkentda ochilgan O'zbekiston Xalq ta'limi tarixi muzeyi o'z faoliyatini boshladi.

1994-yil may oyida Toshkent shahrida Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti muzeyi, shu yilning oktabrda O'zbekiston xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov va uning o'g'li Akbar Rahimovlarning ko'rgazmali muzeyi ochildi[26]. 1996-yilning 1-sentyabrda Toshkentda Osiyoda noyob va yagona bo'lgan "Olimpiya shon-shuhrat" muzeyi ochildi. Muzeyda o'zbekistonlik sportchilarning turli jahon musobaqalarida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini, medallarini faqat namoyish etadigan joygina bo'lib qolmay, balki mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi ham bo'lib qoldi. 1996-yil 18-oktabrda Toshkentda ochilgan "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi" O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifiy va ma'naviy ishlar borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik, ilmiy tafakkur markazi bo'lib qoldi[27]. Muzey eksponatlari juda katta tarixiy qimmatga ega bo'lib, Temuriylar davri ruhini beradi. Muzeyga qo'yilgan tilla buyumlar, qurol-aslahalar, lashkarboshi va oddiy jangchilarning kiyim boshlari, musiqa asboblari, o'sha davrga xos jihozlar, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa madaniy boyliklar shular jumlasidandir[28].

Toshkentda 1996-yil mayida O'zbekiston gidrometeorologiya xizmati muzeyi ishga tushdi. Shu yilning 30-noyabrda Toshkentda ochilgan qimmatbaho qog'ozlar bozori tarixi muzeyiga tashrif buyurgan tomoshabinlar birinchi marta turli davrlarga sayohat qilish sharafiga muyassar bo'ldilar.

1997-yil oktabr oyida Buxoroda mashhur buxorolik zarb qiluvchi usta Salim Hamidov muzeyi ochildi[29].

Bugungi kunda respublikaning katta va kichik shaharlarida, tumanlarida xalqning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish qiluvchi 510 dan ziyod muzeylar ishlab turibdi. Jamiyatni ma'naviy-axloqiy kamolga yetkazishda, keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni ma'rifatli qilishda muzeylarning roli katta ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda "muzey" so'zining bir qator tushunchalari mavjud bo'lib, ma'lum darajada bu fenomenning murakkabligini anglatadi. XX asr insoniyatga yangi tipdagi muzeylarni taqdim etdi. Endi buyumlarni nafaqat saqlash va ekspozitsiyaga qo'yish, balki ularga xos atrof – muhitni, turli tarixiy – madaniy jarayonlarning lavhalarini, inson faoliyatining turlarini ko'rsatish vaqti kelganligi anglandi. Ochiq osmon ostidagi muzeylar paydo bo'ldi, ularning asosini

predmetlarning an'anaviy kolleksiyasi emas, balki o'zning tabiiy atrof muhitida namoyish etiladigan, xalq turmushini aks ettiruvchi me'moriy yodgorliklar tashkil etdi. Shuningdek, asl nusxadagi predmetlarni emas, ularning nusxalarini namoyish etuvchi muzeylar ham paydo bo'ldi[30].

Muzeylar ijtimoiy hayotda o'ziga xos o'ringa ega. Kishilar uchun eng avvalo ma'rifiy-madaniy, ilmiy va dam olish maskani bo'lgan muzeylarni o'tmish va hozirgi hayotimizning oynasi deyish mumkin[31]. Keyingi yillarda barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalar jadal suratlarida kirib kelmoqda. Bu esa ushbu sohalarning zamon bilan hamnafas taraqqiy etishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Jumladan, muzeylar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muzeylar taraqqiyotida katta rol o'ynamoqda. Fan-texnika taraqqiyoti ilg'or yutuqlarining boshqa barcha sohalari qatori muzey ishiga ham kirib kelishi tabiiy hol bo'libgina qolmasdan, hayotiy zarurat hamdir.

Xususan, 90-yillarda kompyuterlardan keng foydalanish bilan muzey sohasida ma'lumot tizimini shakllantirish, axborotni to'laqonli yetkazish imkoniyatlari kengaydi. Ayniqsa, muzey mutaxassislari kompyuter dasturlarini yaxshi o'rganishi va yagona tarmoqning vujudga kelishi muzey fondlarini hujjatlashtirishda ko'pgina qulayliklarni yaratdi. Jumladan, eksponatlarning tasviri raqamli fotokamera orqali bevosita kompyuterga kiritilmoqda. Ularning tahlili va boshqa ma'lumotlar esa ilova qilinib, zaruriyat tug'ilganida mutaxassislar tomonidan qo'shimchalar va tuzatishlar kiritiladi. Bu muzey ishida doimiy harakatda bo'lgan katalog va kartotekaning sifati keskin yaxshilanishini ta'minladi.

Internet tarmog'ining kirib kelishi mazkur jarayonni xalqaro miqyosda faollashtirib yubordi. Hozir undagi "Muzeylar", "Madaniyat" bo'limlariga kirib dunyoning xohlagan muzeyi bo'ylab "sayr" qilish, muzeylar haqida umumiy ma'lumotlardan tashqari, fond eksponatlari, yangiliklar, maxsus tadbirlar va ilmiy anjumanlar haqida, soha mutaxassis-xodimlar manzili, ularning internetdagi elektron pochталari va boshqa ma'lumotlarni olish mumkin. AQShdagi AMIKO konsorsiumi tarqatgan ma'lumotga qaraganda, Internet tarmog'ida ikki yarim milliondan ortiq muzey eksponatlarining suratlari aks ettirilgan kartoteka tizimi mavjud[32].

Hozirgi vaqtda muzeyshunos olimlarimiz respublikada muzeylar faoliyatini yanada yaxshilash masalasida muzeylarni rivojlantirishning maxsus ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqdi. Mutaxassislar fikricha, bu borada O'zbekiston tarixi davlat muzeyi yangi ekspozitsiyasining ilmiy konsepsiyasi barcha muzeylar uchun namuna bo'la oladi. Hozir konsepsiya va tematik-ekspozitsion rejalar ko'paytirilib, respublikamizdagi barcha muzeylarga tarqatildi. Keyingi yillar davomida muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Respublika "O'zbekmuzey" jamg'armasi 2002-yil 16-mayda "XXI asrda O'zbekiston

muzeylari” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muzeylarni milliy istiqloq g‘oyasiga asoslanib jihozlanishining ahvolini o‘rganish va bu borada ularga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida” gi 2002-yil 11-iyundagi 07/105-282-sonli Qarori respublikamizdagi barcha muzeylarning faoliyatini o‘rganishga qaratildi. Mazkur hujjatga binoan “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tomonidan bir guruh yetakchi mutaxassis olimlarni, muzeyshunoslarni jalb etgan holda ishchi guruhi tuzildi[33]. “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi qaroriga ko‘ra, “mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash, shuningdek, muzeylarda o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to‘plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ‘ib qilish[34]” ishlari yanada jadallashtirilmoqda.

Buxoro muzey quriqxonasida yangi “Ochiq xazina” kompyuter markazi Internet tarmog‘ida o‘z saytini yaratib, muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar tizimini dunyoning barcha mamlakatlariga yetkazib berish imkoniyatiga ega. Bunday holat, albatta, ushbu muzeyni jahon muzeylari bilan hamkorligini o‘rnatishga xizmat qiladi. Inson dunyoga bir marta keladi. Uning tomonidan bunyodga kelgan yaxshilik esa bir umr yoddan chiqmaydi. Chunki ezgulik abadiydir. Zero, shunday ekan, biz ham o‘z ajdodlarimiz kabi kelajak avlodga munosib meros qoldirishimiz darkor.

Mustaqil vatanimizda milliy o‘zlikni tiklashga alohida e‘tibor berilmoqda. Zero, bizning yurt ajdodlarining tarixda ko‘rsatgan buyuk xizmatlarini xolis o‘rganish va targ‘ib etish jarayonlarida muzeylar faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

“Buyuk ipak yo‘li” ning vorisi sifatida O‘zbekistonga ko‘plab mamlakatlar, ayniqsa, rivojlangan davlatlar – AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Ular ajdodlarimiz meros qilib qoldirgan muzeylarimizda saqlanayotgan noyob osori-atiqalarni ko‘rish, qadimiy-tariximiz, boy madaniyatimiz bilan tanishish istaklarini bildirmoqdalar[35].

Umuman olganda, muzeylar tarixni o‘rganish va saqlashda muhim rol o‘ynab, insoniyatning o‘tmish bilan bog‘lanishini ta‘minlaydi. Shuning uchun ular davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 6. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 114.

2. Davlatov B., Ibragimov. O. Muzeyshunoslik atamalarining izohli lug'ati. – T., 2005. – B. 118.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида” ги Фармони // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 20 сентябрда қабул қилинган “Музейлар тўғрисида” ги Фармони / Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947- sonli Farmoni / Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3022 sonli qarori / Lex. uz.
7. “2017 – 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Toshkent, 2017-yil, 11-dekabr’. 975-son. / <https://lex.uz/docs/3451889>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида” ги Фармони / <https://lex.uz/docs/-209722?ONDATE=12.01.1998%2000>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 20 сентябрда қабул қилинган “Музейлар тўғрисида” ги Фармони / Lex. uz.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида” ги Фармони // Халқ сўзи, 1998 йил 13 январь.
11. Вазирлар Махкамасининг 1998 йил 5 мартдаги “Музейлар фаолиятини тубдан қўллаб қувватлаш масалалари тўғрисида” ги 98- сонли Қарори. / Lex. uz.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида” ги Фармони // Халқсўзи, 1998 йил 13 январь.
13. Vazirlar Mahkamasining “Ozbekiston Respublikasining muzeylar to‘g‘risidagi qonunni ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 68–sonli Qaror // Lex. uz.
14. Namangan viloyati Pop tumani hokimiyati joriy arxividan.
15. Қорабоев У. Миллатнинг камолоти // Мулоқот. – 1999. – №2. – Б. 26.

16. Namangan viloyati tarixi va madaniyati muzeyi joriy arxividan.
17. Курязова Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Т.: Санъат, 2010. – Б. 91.
18. Қодирова Т. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморчилиги. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 40.
19. <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/8616-o-zbekistondagi-muzeylar-soni-nechta>
20. <https://hozir.org/ozbekistondagi-muzeylar.html>
21. Рахимов Ф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболи масалалари // Моддий – маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. 10 китоб. – Тошкент: 2018. – Б. 386.
22. Караманова Г. К. Музейшунослик (маъруза матни). – Нукус, 2007. – Б. 19.
23. Рахимов Ф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболи масалалари // Моддий – маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. 10 китоб. – Тошкент, 2018. – Б. 387.
24. Reymbayev R. Muzeyshunoslik (ma'ruza matni). – Nukus, 2012. – B. 6.
25. Рахимов Ф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболи масалалари // Моддий – маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. 10 китоб. – Тошкент: 2018. – Б. 389.
26. Ўктамжонова М. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларни жаҳон тасвирий санъат музейлари билан ташкиллаштириш. Битирув малакавий иши. – Гулистон, 2014. – Б. 9.
27. Караманова Г. К. Музейшунослик (маъруза матни). – Нукус, 2007. – Б. 20.
28. Ўлжаева Ш. Музейшунослик (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2002. – Б. 37.
29. Қодирова Т. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморчилиги. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 35.
30. Курязова Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Т.: Санъат, 2010. – Б. 9.
31. Курязова Д. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Т.: Санъат, 2010. – Б. 9.
32. Рахимов Ф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболи масалалари // моддий – маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. 10-китоб. – Тошкент, 2018. – Б. 390.
33. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 11-iyunda “Muzeylarni milliy istiqlool g‘oyasiga asoslanib jihozlanishining ahvolini o‘rganish va bu borada ularga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida ” gi 282-sonli Qarori / Lex. uz.
34. <https://president.uz/oz/lists/view/5227>
35. Ўлжаева Ш. Музейшунослик (ўқув қўлланма). – Т., 2002. – Б. 100.